



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI

Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi

"Raqamli ta'limni rivojlantirish markazi" Davlat muassasasi

Hududlar bilan ishlash va IT-shaharchalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

Email: salaydinovshodiyor@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha O'zbekiston amaliyotiga fanda shakllangan turli ilmiy konsepsiyalar nuqtai-nazaridan baaho berilib, milliy xususiyatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, raqamli texnologiyalar, tadbirkor, raqamli tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, innovasion tadbirkorlik.

Abstract. From the perspective of various scientific concepts developed in economic theory, the article evaluates the practice of introducing digital technologies into entrepreneurial activity in Uzbekistan and identifies its national characteristics.

Key words: entrepreneurship, entrepreneurial activity, digital technologies, entrepreneur, digital entrepreneurship, small business and private entrepreneurship, innovative entrepreneurship.

Аннотация. В статье с позиций различных научных концепций, сформировавшихся в экономической науке, дана оценка практике внедрения цифровых технологий в предпринимательскую деятельность в Узбекистане, а также выявлены ее национальные особенности.

Ключевые слова: предпринимательство, предпринимательская деятельность, цифровые технологии, предприниматель, цифровое предпринимательство, малый бизнес и частное предпринимательство, инновационно предпринимательство.

KIRISH

Global darajada tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro raqobatlashuv kurashining keskinlashib borishi bu turdagi faoliyatni amalga oshirishning texnologik jihatdan takomillashishiga sabab bo'lib, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida bir tarafdin ishlab chiqarish, ikkinchi tarafdin xo'jalik yuritish samaradorligini oshirishga erishilayotganligi mazkur yo'nalishda iqtisodiy fanda o'tkaziladigan tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishning sezilarli darajada ortib ketishiga sabab bo'ldi [1], [2]. Bugungi kunda innovatsion iqtisodiy tizimni shakllantirish, milliy iqtisodiyotni texnologik jihatdan rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish kabi qator iqtisodiy islohot yo'nalishlarida milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasidan qat'iy nazar har qanday mamlakatda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda [3], [4], [5]. Ushbu holat global qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishdagi baynalmilallashuv jarayonlari samaradorligini ta'minlash, xususan, tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish salohiyatidan samarali foydalanishda raqamli texnologiyalardan foydalanish eng to'g'ri yo'nalish sifatida baholanayotganligi bilan izohlanadi.

Bugungi O'zbekiston ustuvor islohotlari sharoitida mahalliy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlarini raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanishda bugungi kunda mazkur yo'nalishda shakllangan iqtisodiy nazariyalarni tizimli tahlil qilish orqali aynan qaysi turdagi konseptual asosga ko'ra rivojlanish ustuvorliklarini ishlab chiqish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Jumladan, hukumat tomonidan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ishlab chiqilib, uni so'nggi besh yil mobaynida izchil amalga oshirib kelinayotganligini inobatga olib, keyingi yillarda ushbu strategiyani amalga oshirish samaradorligini oshirishda qaysi turdagi konseptual yondashuvlardan foydalanishga ustuvorlik qaratish zarurligini ilmiy jihatdan isbotlashga erishiladi [6], [7].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-uslubiy asoslari uzoq xorijlik olimlardan A.A. Gumusay, A. Bennich, P. Ahokangas, U. Adams, A. Alvarez, B.G. Altafin kabilar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Yaqin xorijlik Ye.Yu. Apxanova, M.M. Stepanov, M. Popovich, H. Maskiv, L.S. Gevorgyan, V.R. Yermolayeva kabi iqtisodchilar mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini tadqiq etishmoqda.

O'zbekistonlik N.R. Raxmonov, O.A. Aripov, N.X. Jumayev, N.O. To'rayeva, Sh.A. Atmurodov, Sh.Sh. Rasulov, R.A. Rashidov kabilar tomonidan O'zbekiston sharoitida raqamli tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish xususiyatlari, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvorliklari tadqiq etilgan hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sharoitida tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini oshirish yo'nalishlari kompleks tarzda, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmaganligi, tadqiqot obyekti sifatida ushbu mavzuning tanlanishiga asos bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga qadar iqtisodiy fanda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotiga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqishda raqamlashtirish jarayonlarining iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va tashkiliy jihatdan tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik faoliyatiga ta'sir doiralari tadqiq etilganligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tahlillar bugungi kunda jahon amaliyotida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini texnologik taraqqiyot, iqtisodiy-innovatsion, raqamli transformatsiyalashuv, ijtimoiy-tashkiliy hamda institutsional-huquqiy nazariy yondashuvlar kabi yirik besh guruhga ajratish (1-rasmga qarang) mumkinligini ko'rsatdi [8], [9].

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini raqamlashtirishga qaratilgan ilmiy nazariyalar guruhlarining amal qilishi jihatidan ularning mohiyati, afzalliklari, kamchiliklari, amaliyotda qo'llanilishi va ustuvor yo'nalishlari kabi mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarni shakllantirishga erishildi (1-rasm) [10].



1-rasm. Iqtisodiy fanlarda tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha shakllangan ilmiy-nazariy yondashuvlarning guruhlanishi¹

Texnologik taraqqiyot va iqtisodiy-innovatsion nazariyalar guruhlari tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga erishiladigan yangi imkoniyatlar va ularning innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan;

raqamli transformatsiyalashuv va ijtimoiy-tashkiliy nazariyalar guruhlari tadbirkorlik faoliyatidagi korxonaning ichki xo'jalik yuritish jarayonlari, jumladan, boshqaruv, ishlab chiqarishda inson omilidan foydalanish samaradorligini oshirishning ustuvorliklarini aniqlashga yo'naltirilgan;

1 Muallif ishlanmasi




institutsional-huquqiy yondashuvlar mamlakatda amal qilayotgan iqtisodiy tizim sharoitida tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, xususan, mazkur siyosatning amal qilishining institutsional asoslarini shakllantirish hisobiga tashqi omillar samaradorligini ta'minlashga qaratilganligi aniqlandi [11].

O'tkazilgan tahlillar tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha har bir nazariyalar guruhi bo'yicha O'zbekiston sharoitida ularning amal qilishi holatlari hamda ijodiy foydalanish yo'nalishlaridagi mavjud muammolarni aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan yondashuvlar asosan bozor va davlat xizmatlari ko'rsatish tarmoqlari hisoblangan bankchilik, davlat xizmatlari, IT-parklar faoliyatini tashkil etish va onlayn platformalarni shakllantirishda keng qo'llanilayotganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyoti nazariyalari guruhlarining O'zbekiston sharoitida amal qilish xususiyatlari²

№	Nazariyalar guruhi	O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi	Erishilgan yutuqlar
1	Texnologik taraqqiyot nazariyalari	- "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi - "Raqamli hukumat" platformalari - IT park faoliyatini tashkil etish orqali yangi texnologiyalarni joriy qilish	- IT startaplar ko'paydi - Blokcheyn va internet ashyolari (IoT) yo'nalishlaridagi tadqiqotlar boshlandi
2	Iqtisodiy-innovation nazariyalar	- e-tijorat va fintek startaplarini rag'batlantirish - Innovation rivojlanish markazlari	- Uzum, Payme, Click kabi platformalar paydo bo'ldi - Startap grant dasturlari ishga tushdi
3	Raqamli transformasiya nazariyalari	- Bank xizmatlari (Humo, Uzcard) raqamlashdi - Davlat xizmatlari "my.gov.uz" orqali ko'rsatiladi - Ayrim tadbirkorlar faoliyatiga ERP tizimlari joriy etilmoqda	- Davlat xizmatlari shaffoflashdi - Aksariyat korxonalar raqamli hisob-kitobga o'tdi
4	Ijtimoiy-tashkiliy nazariyalar	- Onlayn ta'lim (Coursera, National MOOC) - Xodimlar uchun raqamli malaka kurslari - Inson resurslarini boshqarish bo'yicha raqamli platformalar (HRM, KPI)	- "IT" loyihalari - Xodimlar malakasini oshirish tizimi shakllanmoqda
5	Institutsional-huquqiy nazariyalar	- Elektron lisenziyalash, Soliq.uz, Davlat xizmatlari agentligi - Raqamli identifikatsiya (One-ID) tizimi - Elektron tijorat va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar	- Huquqiy baza yaratilgan - Davlat organlari raqamlashmoqda

Bugungi kunda hukumat tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, davlat xizmatlari interaktiv portali hamda onlayn soliq tizimining shakllantirilganligi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishning strategik dasturlari³

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi



Tahlillar mamlakatda tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari — “Raqamli O‘zbekiston”, “Tadbirkorlikni rivojlantirish”, “Innovatsion rivojlanish”, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” strategiyalari o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikka asoslangan holatda amalga oshirilayotganligini, jumladan, strategik rivojlanish dasturlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish maqsadida “davlat boshqaruvini raqamlashtirish, milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari va hududlarini raqamli transformatsiyalash”ga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan ishlab chiqilgan “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturida ham tadbirkorlik faoliyatida raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirish imkonini beruvchi mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan hisoblanadi.

Shuningdek, hukumat tomonidan mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ustuvor islohotlar bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini tartibga solish va sohani qo‘llab-quvvatlash jarayonini tarkibiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari markazlari (my.gov.uz), Soliq qo‘mitasi, IT-park, Markaziy bank, tadbirkorlik subyektlari (jumladan, ularning uyushmalari) kabi tashkilotlar faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirishga asoslangan institutsional asosini shakllantirish imkonini berganligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini rivojlantirish modellari amal qilishida qo‘llaniladigan raqamlashtirish vositalari⁴

№	Raqamli texnologiya turlari (shartli belgilanishi)	Raqamli texnologiyaning asl nomi	Amaliyotda qo‘llanilishi
1	Sun‘iy intellekt (SI)	AI – Artificial Intelligence	Tadbirkorlarning o‘z mijozlari xatti harakatlarini chuqur tahlil qilish, jumladan, ularga avtomatlashtirilgan xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish
2	Internet ashyolari (IA)	IoT – Internet of Things	Tadbirkorlik faoliyati holati bo‘yicha “Real Time” tamoyili asosida ma’lumotlarni jamlash, yig‘ish, shuningdek, aqlli logistik ta’minot tizimini shakllantirishda qo‘llaniladi
3	Big Data	Big Data	Tadbirkorlik faoliyati, jumladan, bozor va raqobatchilar holati bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonida keng qo‘llaniladi
4	Blokcheyn	Blockchain	To‘lov tizimlarining amal qilishi, jumladan, ma’lum bir hamkorlik doirasidagi o‘zaro kelishuvlarning xavfsizligi va shaffofligini ta’minlashda qo‘llaniladi
5	Bulutli hisoblash (BH)	Cloud Computing	Tadbirkorlar uchun masofadan turib raqamli vositalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan dasturiy ta’minot xizmatlaridan (SaaS, PaaS) foydalanish imkonini beradi

Tahlillar so‘nggi yillarda jahon amaliyotida tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning elektron tijorat (e-Commerce), raqamli marketing (Digital Marketing), SaaS (Software-as-a-Service) (jumladan, IaaS (Infrastructure-as-a-Service) yoki PaaS (Platform-as-a-Service)), integratsion raqamli boshqaruv (ERP va CRM tizimlari) hamda gibril raqamlashtirish modellari qo‘llanilayotganligini ko‘rsatdi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini rivojlantirish modellari o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan avval barcha modellarda qo‘llaniladigan sun‘iy intellekt (SI), internet ashyolari (IoT), Big Data, blokcheyn (Blockchain), bulutli hisoblash (Cloud Computing) kabi raqamli texnologiyalardan foydalanishga (2-jadvalga qarang) ustuvorlik qaratilishi aniqlandi [14], [15].

Shuningdek, yuqorida keltirilgan modellar orqali tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga erishiladigan ijobiy tendensiyalar bo‘yicha quyidagicha xulosalar shakllantirildi:

SaaS / IaaS / PaaS, raqamli marketing va elektron tijorat modellari orqali tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga ularning biznes yuritish jarayonlari tezligi ortib, bu turdagi jarayonlarni tashkil etishda yengillikka erishish imkoniyatlari kengayadi;

integratsion raqamli boshqaruv, SaaS / IaaS / PaaS va gibril modellar asosida tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish hisobiga tizimli boshqaruv amaliyotini shakllantirishga erishiladi;

tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini raqamli marketing, SaaS / IaaS / PaaS va elektron tijorat modellari asosida rivojlantirish hisobiga korxonaning investitsion samaradorlik (ROI) ko‘rsatkichini sezilarli darajada yaxshilashga erishiladi;

4 Muallif ishlanmasi



aksariyat holatlarda elektron tijorat, raqamli marketing va gibrid modellar asosida tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish jarayonlari amaliyotda keng qo'llanilishi bilan xarakterlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon amaliyotida tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish borasida qo'llanilayotgan modellardan O'zbekiston sharoitida ijodiy foydalanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tahlillar orqali quyidagi natijalarga erishildi:

elektron tijorat modeli asosida hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish hisobiga mazkur sohalarining eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin;

raqamli marketing modeli asosida global bozorlarda ishtirok etayotgan mahalliy tadbirkorlik subyektlarining xalqaro darajadagi brending faoliyati samaradorligini oshirish mumkin.

SaaS / IaaS / PaaS modeli orqali tadbirkorlik faoliyatida soliq, kadrlar va savdo jarayonlarini bulutli texnologiyalar asosidagi tizimda shakllantirish hisobiga raqamli transformatsiyalash imkoniyatiga erishiladi;

gibrid modellar asosida mamlakatda bozor, innovatsion, yashil va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish hamda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlashga erishish mumkin hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini rivojlantirish modellaridan O'zbekiston sharoitida ijodiy foydalanish imkoniyatlaari tahlili⁵

№	Modellar	O'zbekistonda amal qilish holati	Ijodiy foydalanish ustuvorliklari	Imkoniyatlarni kengaytirish bo'yicha takliflar
1	Elektron tijorat	Yuqori darajada rivojlanmoqda (Oson, Uzun, Asaxiy)	- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini onlayn sotish - Qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik uchun onlayn bozorlarni tashkil etish	- Elektron logistika platformalarini rivojlantirish - Mahallabay "e-Commerce" platformalarini ishlab chiqish
2	Raqamli marketing	Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram) keng tarqalgan	- Milliy mahsulotlar uchun ta'sirchan (influencer) marketing choralari ko'rish - Targetlangan reklama orqali hududiy marketing dasturlarini ishlab chiqish	- SMM kurslarini ommaviylashtirish - Staartaplarga mos keladigan bepul targ'ibot platformalarini tashkil etish
3	SaaS / IaaS / PaaS	Amaliyotga joriy etish bo'yicha islohotlar boshlangan, IT hablar hozircha markaziy shaharlarda tashkil etilmoqda	- Moliya hisobini avtomatlashtirish (soliq.uz bilan integratsiyalash) - Katta hajmdagi ma'lumotlar asosida mijozlarga xizmat ko'rsatish	- Mahalliy tadbirkorlik subyektlarini SaaS / IaaS / PaaS faoliyatini qo'llab-quvvatlash - "Cloud" markazlarni viloyatlar kesimida rivojlantirish
4	Integratsion raqamli boshqaruv	Yirik tadbirkorlik korxonalari amaliyoti mavjud, kichik va o'rta tadbirkorlikda kam uchraydi	- Mijozlar ma'lumotlari bazasini yaratish - Savdo-ombor hisobini avtomatlashtirish	- Davlat grantlari orqali joriy etish
5	Gibrid model	Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarni elektron tijorat va raqamli marketing modellari orqali rivojlantirishda qo'llanilmoqda	- "Click & Collect" modelini bozorlarda joriy etish - Onlayn buyurtmani rasmiylashtirish - oflayn yetkazib berish	- Raqamli va an'anaviy usulni uyg'unlashtiruvchi biznes-maktablarni tashkil etish - Viloyatlarda mahalliy logistika xizmatlarini rivojlantirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025 yildagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-7444738>

5 Muallif ishlanmasi



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6102462>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori // <https://lex.uz/docs/-4539502>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qarori // <https://lex.uz/docs/-6472548>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.07.2023 yildagi "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 279-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6526182>
7. A. Osterwalder and J. Euchner, «Business Model Innovation: An Interview with Alex Osterwalder,» Research-Technology Management, vol. 62, no. 4, pp. 12–18, 2019.
8. P. Valendia, A. Herrera, M. Sanchez, and J. Villalobos, «Facilitating business model transformation: Theory, operators, and patterns,» Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, vol. 10, 2024, pp. 1–12, doi: 10.1016/j.joitmc.2023.100203.
9. R. Biloslavo, C. Bagnoli, and M. Massaro, «Business model transformation toward sustainability: the impact of legitimation,» Management Decision, vol. 58, no. 8, pp. 1643–1662, 2020.
10. B.G. Altafin, C. Morini, and D.H. Dario Capitani, «Business Model Revisited: a Novel Canvas or Digital Transformation,» Journal of Revista de Gestao, vol. 32, no. 3, pp. 1–18, 2025, doi: 10.1108/REGE-12-2023-0142.
11. E. Trist, The Evolution of Socio-Technical System: A Conceptual Framework and an Action Research Program, Issue in the Quality of Working Life, A Series of Occasional Papers, No. 2, Ontario Quality of Working Life, June 1981, 72 pages.
12. S.H. Appelbaum, «Socio-technical systems theory: an intervention strategy for organizational development,» Journal of Management Decision, vol. 35, no. 6, pp. 452–463, 1997.
13. I. Nonaka, «Organizational Knowledge Creation,» at the Knowledge Advantage Conference, Nov. 11–12, 1997, University of Kentucky. [Online]. Available: <https://www.uky.edu/~gmswan3/575/nonaka.pdf>
14. S.K. Shrivastav, S. Bag, and R. Bhattacharya, «Sustainable knowledge management in the digital era: leveraging natural language processing to identify trends, challenges and future directions,» Journal of Knowledge Management, vol. 29, no. 9, pp. 2843–2872, 2025.
15. United Nations (UN), Department of Economic and Social Affairs, E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development, 2024, 179 pages.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
